

## MUALLIFLIK HUQUQI OBYEKTTLARI VA ULARNING AHAMIYATI

**Ubaydov Nodir Nematilla O‘g‘li**

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*

### A R T I C L E I N F O.

**Kalit so‘zlar:** mualliflik huquqi, mualliflik huquqi obyektlari, og‘zaki yoki yozma asarlar, ovozli yoki videoyozuv, hajmli-fazoviy asarlar, rasm, eskiz, manzara, tarh, chizma, kino-, tele-, video- yoki fotokadr va hokazolar kiradi.

### Annotation

Mualliflik huquqi jismoniy va yuridik shaxslarning ijodiy va intellektual asarlarini himoya qilishda asosiy rol o‘ynaydigan huquq sohalaridan biridir. Asosan, mualliflik huquqi ijodkorlarga ekskllyuziv huquqlarni beradi, bu esa ularga o‘z intellectual salohiyatlari asosida yaratilgan asarlaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirishni nazorat qilish imkonini beradi. Mualliflik huquqi obyektlari inson tasavvurining o‘zi kabi xilma-xil bo’lib, inson madaniyati va ijodining boy qirralarini o‘zida aks ettiradi. Yozilgan so‘z va tasviriy san’atdan tortib musiqa, dasturiy ta’mot va arxitektura dizaynlarigacha mualliflik huquqi obyektlarini qamrab oladi. Mualliflik huquqi obyektlari va ularni himoya qilishni tartibga soluvchi tamoyillarni aniqlashtirib olish rassomlar, mualliflar, innovatorlar va iste’molchilar uchun juda muhim, chunki u zamonaviy jamiyatdagi intellektual mulk tizimining asosini tashkil qiladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2023 LWAB.

Maqola mavzusini to’liqroq tushunish va farqlab olish uchun avvalambor mavzuga aloqador bo’lgan savollar nimalardan iborat ekanligi va o‘z yechimini topish kerak bo’lgan mummolarni aniqlashtirib olishimizga to’g‘ri keladi. Demak yuqoridagi me’zonlar asosidagi savollarni quyidagilar tashkil etadi:

- Mualliflik huquqi tushunchasining o‘zi nima va uning huquqiy tabiatini qanday?
- Mualliflik huquqining obyektiv shakllarini nimalar tashkil etadi?
- Mualliflik huquqi obyektlarining milliy qonunchilikdagi o’rni
- Mualliflik huquqi obyektlari tushunchasi haqida xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarda qanday normalar mavjud?
- Mualliflik huquqi obyektlariga nisbatan muallifning shaxsiy-nomulkiy va mulkiy huquqlari doirasi qanday?
- Mualliflik huquqi obyektlarini muhofaza qilish va ahamiyatli jihatlari nimalardan iborat?
- Xorijiy davlatlarda mualliflik huquqi va obyektlari qay darajada tartibga solingan?
- Mualliflik huquqi obyektlari haqida mahalliy va xorijiy olimlar qanday fikrda?

Dastavval mualliflik huquqi tushunchasidan boshlaydigan bo’lsak, mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo’lmish fan, adabiyot va san’at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek ifodalanan usulidan qat’i nazar, tatbiq etiladigan munosabatlani huquqiy tartibga solishdan iborat bo’lgan huquq tizimi hisoblanadi. Mualliflik huquqi muallif tomonidan yaratilgan ijod mahsuli

yaratilishi bilan, u obyektiv shaklga ko'chgan zahoti va hech qanday rasmiyatchilikka asoslanmagan holda vujudga keladi. Milliy qonunchiligidagi asosan mualliflik huquqi g'oyalari, prinsiplar, uslublar, jarayonlar, tizimlar, usullar yoki konsepsiyalarga emas, balki ifoda shakliga nisbatan tatbiq etilishi ya'ni ijod mahsulining oyektiv shaklga ko'chishi bilan mualliflikning vujudga kelishi nisbatan o'zgacha jihatini namoyon etadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 1041-moddasiga binoan: "*Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'l mish fan, adabiyot va san'at asarlariiga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek ifodalananish usulidan qat'i nazar, tatbiq etilishi*" belgilab qo'yilgan. Mualliflik huquqi quyidagi biron-bir obyektiv shaklda bo'lган asarlarga tatbiq etiladi:

- yozma asarlar – bunga qo'lyozma ya'ni muallif tomonidan o'z qo'li bilan ruchka, qalam yoki boshqa yozuv vositasi yordamida ma'lum bir qog'ozga yoki yozish mumkin bo'lган biron bir obyektga yozgan yozuvi, maxsus yozish mashinkalari orqali yozilgan yozuvar, ma'lum bir musiqa tarkibini shakllantiruvchi notali yozuv va boshqa yozish turlari kiradi;
- og'zaki usulda ifoda etilgan mualliflik- o'z ijodiy salohiyati mahsuli bo'lган asarni yoki nutqni omma oldida so'zlash, omma oldida ijro etish va boshqalar;
- Ovozli yoki video yozuv- bunga mexanik, magnitli, raqamli, optik yozuvlarni asoslab keltirishimiz mumkin. Misol uchun diskka, tasmaga, kassetaga yoki masus USB fleshka yoki qattiq disklarga yozilgan ijodiy mehnat mahsuli
- mualiflik huquqi obyektiv shakllarining tasvir usulida- rasm, eskiz, manzara, tarh, chizma, kino-, tele-, video- yoki fotokadr va hokazolar kiradi;
- hajmli-fazoviy- bunga ma'lum bir shaxs yoki shaxslar tomonidan yaratilgan haykal yoki model, biron bir obyektning kichraytirilgan nusxasi-maket, va hokazolar kiradi;

Mualliflik huquqi oshkor qilingan asarlarga ham, oshkor qilinmagan asarlarga ham tadbiq etiladi. Ya'ni har qanday shaxs o'zining ijodiy yondashib yaratgan har qanday obyektini uning muallifi deb e'tirof etilishi uchun kimgadir yoki ma'lum bir tashkilot yoki mussasaga oshkor qilishga majbur emas. Bundan ko'rinish turibdiki muallif yaratgan asarini yaratganligiga nisbatan mualliflik huquqi vujudga keladi.<sup>1</sup> Mualliflik huquqi O'zbekiston Respublikasida qonunchilik bilan tartibga solingan bo'lib, uning himoya qilinishini aniq va keng qamrovdag'i normalarda ko'rishimiz mumkin. Mualliflik huquqi obyekti sifatida tan olish uchun zarur bo'lган quyidagi xususiyatlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- ijodiy xarakteri
  - obyektiv shakl
  - ularni idrok qilish mumkin bo'lган biron-bir shaklda yoki boshqa usulda ishlab chiqarish qobiliyati
- Asarning ***ijodiy xarakteri***, mustaqil ijodiy faoliyat natijasida yangilik bilan ajralib turadigan asarning yaratilishi ijodiy xarakterini tashkil etadi.<sup>2</sup>

**Ishni shakliga** kelsak, uni maxsus o'ziga xoslik bilan ajratib ko'rsatish shart emas. Shu bilan birga san'at asarlarida esa, birinchi navbatda hissiy ta'sirni ta'minlashga qaratilgan bo'ladi va bu holda ijodkorlik ko'proq shakliga yo'naltirilgan bo'ladi.

<sup>1</sup> Bakhranova Mokhinur A THOROUGH REVIEW OF THE COMMON LAW CONCEPT OF "ARBITRARY TERMINATION" AND "UNFAIR DISMISSAL" (including DIFC&ADGM // Review of law sciences. 2020. № November Exclusive issue. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/a-thorough-review-of-the-common-law-concept-of-arbitrary-termination-and-unfair-dismissal-including-difc-adgm>

<sup>2</sup> Bakhranova Mokhinur A THOROUGH REVIEW OF THE COMMON LAW CONCEPT OF "ARBITRARY TERMINATION" AND "UNFAIR DISMISSAL" (including DIFC&ADGM // Review of law sciences. 2020. № November Exclusive issue. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/a-thorough-review-of-the-common-law-concept-of-arbitrary-termination-and-unfair-dismissal-including-difc-adgm>

Hosil bo'lgan asari yaratildimi yoki yo'qmi degan savolga uni yaratishda yetarlicha ijodiy qobiliyat mavjudligiga bog'liq. Shunday qilib, asarni yaratishda hosilaviy asarning elementlaridan foydalanilmagan bo'lsa, u holda aniq mualliflik bilan himoyalananadigan yangi ish yaratilgan hisoblanadi.

Endi mualliflik huquqi obyektlarining milliy qonunchilikdagi o'rniغا to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi" qonuni 6-moddasiga asosan, quyidagilar mualliflik huquqi obyektlari hisoblanadi:

- adabiy asarlar;
- drama va ssenariy asarlari;
- matnli yoki matnsiz musiqa asarları;
- musiqali drama asarları;
- xoreografiya asarları va pantomimalar;
- audiovizual asarlar;
- rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, dizayn asarları va tasviriy san'atning boshqa asarları;
- manzarali-amaliy va sahna bezagi san'ati asarları;
- arxitektura, shaharsozlik va bog'-park barpo etish san'ati asarları;
- fotografiya asarları va fotografiyaga o'xshash usullarda yaratilgan asarlar;
- jo'g'rofiya, geologiya xaritalari va boshqa xaritalar, jo'g'rofiya, topografiya va boshqa fanlarga taalluqli tarhlar, eskitlar va asarlar;

Endi yuqorida sanab o'tilgan mualliflik huquqi obyektlarini to'liqroq o'rganib, ularni kengroq tahlil qiladigan bo'lsak, **adabiy asarlar**- bunga adabiy-badiiy, ilmiy, o'quv, publisistik va boshqa asarlar kiradi. *Adabiy-badiiy asarlarga* yozuvchi muallif tomonidan adabiy uslubdan foydalanib, mazmuni jihatidan asardagi voqealar badiiy to'qima va obrazlardan tashkil topgan bo'ladi. Bunga misol qilib, T.Malikning "Shaytanat" nomli asarini olsak bo'ladi. *Ilmiy asarlarga* nazariy yoki eksperimental tadqiqodlarni o'z ichiga olgan fan va texnika masalalari, yutuqlari hamda fan arboblari tarjimai xollarli bilan tanishtirish uchun mo'ljallangan kitob, risola, maqola va asarlar kiradi. Ilmiy asarlarga misol qilib, Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarini (ijtimoiy mulkka aylangan bo'lsa ham muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari himoya qilinadi), yoki bo'lmasa U.Tursunovning o'zbek tilinining ilmiy va nazariy tahliliga bag'ishlangan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" nomli kitobini misol qilib olishimiz mumkin. *O'quv asarları* deb esa, ma'lum bir qatlamga yoki jamoaga bilim berish va metodik qo'llash maqsadida yaratilgan asarlar tushuniladi. Bunga misol qilib I.B.Yakubovaning Mualliflik huquqi nomli o'quv qo'llanmasini yoki Odilqoriyevning Davlat va huquq nazariyasi yoki H.Muhammedovning Davlat va huquq tarixi nomli o'quv-metodik asarlarini olishimiz mumkin. *Publisistik asarlarga* to'xtaladigan bo'lsak, davrning ijtimoiy-siyosiy va boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlangan adabiy ijod turi mahsuli hisoblanadi.<sup>3</sup> Ushbu mualliflik obyektida asosiy e'tibor ijtimoiy muammo va masalalarga qaratilgan bo'ladi. Bunga misol qilib, o'tgan asrda sho'rolar zulmi kuchayib ijtimoiy masalalar asosiy ahamiyat kasb etgan davrda I.Obidiy, M.Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, U.Xo'jayev, A.Avloniy, H.Muin, M.Abdurashidxonov, S.Ajiziy va boshqa hurfikr jadid ziyoililari tomonidan "Shuhrat", "Xurshid", "Osiyo", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona", "Najot", "Turon", "Hurriyat", "Yurt" kabi gazeta va jurnallar sahifalarida chop etilgan o'lka va xalqaro maydondag'i ijtimoiy-siyosiy, fan va ta'lim, madaniyat va san'at, milliy siyosat va boshqa masalalarga bag'ishlangan publisistik maqolalarini misol qilib olishimiz mumkin. Yoki zamonaliviy misol qiladigan bo'lsak, jurnalist va

<sup>3</sup> Bakhranova, Mokhinur. "Perspectives of Development of Arbitration Legislation and Law Enforcement Practice in Uzbekistan." *European Journal of Molecular & Clinical Medicine* 7.1 (2020): 3586-3593. [https://ejmcm.com/article\\_4172\\_46bc5c3ed433bbd8f238921032e63b47.pdf](https://ejmcm.com/article_4172_46bc5c3ed433bbd8f238921032e63b47.pdf)

blogerlar tomonidan ijtimoiy masalalarga bag'ishlangan jurnalistik asarlarini misol qilib olishimiz mumkin. Bundan kundalik xabarlar ko'rinishidagi jurnalistning mehnat mahsuli mustasno. Mualliflik huquqining obyekti **drama va ssenariy asarlariga** to'xtaladigan bo'lsak, drama asarlarining farqli jihatasi asar qahramonlarining xatti-harati va kechinmalarni namoyon qilish bilan ifodalanadi. Bunda muallif drama asarining senariysini yozayotganda senariydagi asosiy e'tibor asar qahramolarining kechinmalarini ta'riflashga qaratilgan bo'ladi. Ssenariy asarlari esa har qanday sahna yoki film ko'rinishining voqealari aks etgan asar hisoblanadi.

**Xoreografiya asarlari va pantomimalar** mualliflik huquqining ushbu obyektining obyektiv tomoni harakatga bog'liq bo'lib, muallif tomidan yaratilgan yangi xoreografik harakatlар yoki imo-ishoralarga asoslanadi. Misol uchun ma'lum bir raqqos yangicha uslubda bir necha raqs harakatlari asosida yangi raqs uslubini (xayolan tovus, oqqush raqsi kabi) yaratdi va bu raqs uslubi oldin biron raqqosa tomonidan ijro etilmagan bo'lsa mualliflik huquqining obyekti hisoblanadi. Pantomimada esa muallif deyarli gapirmaydi, asosan yuz mimikalari orqali alohida harakatlarni bajarishini tushunsa bo'ladi. Bunga misol qilib, fransuz san'atkori Roan Atkinsonning Mr Bin rolini ijro etishini olishimiz mumkin. Xoreografiya va pantomima asarlarining yana bir muhim jihatasi ular birinchi va ilgari hech kim tomonidan ijro etilmagan yangi harakatlар mahsuli bo'lishi lozim. Agarda ushbu mualliflik obyektlari yaratilgandan keyin qayta boshqa shaxs tomonidan ijro etilsa turdosh huquqning obyektiga aylanib ketadi. **Audiovizual asarlar**- bir-biri bilan bog'liq bo'lган (ovoz jo`rligida yoki ovoz jo`rligisiz) tasvirlarning yozib olingan turkumidan iborat bo'lган, tegishli texnika vositalari yordamida ko`rib va eshitib (ovoz jo`rligi bo`lsa) idrok etish uchun mo'ljallangan yozuv, shu jumladan, kinematografiya, multiplikatsiya va animatsiya asarlari hamda kinematografiyanikiga o`xshash vositalar bilan ifodalangan barcha asarlar kiradi<sup>4</sup>. Bunga misol qilib, tele-, kino- va videofilmlar, kliplar, konsert dasturlarining yozuvlari, multfilmlar, anime, xentay (axloqiy jihatidan buzuq obyektligi bilan farqlanadi) va shu kabilarni olishimiz mumkin. Axloqan buzuq audiovizual asarlar ham mualliflik huquqining obyekti hisoblanadi. Muallifning ijodiy yondashuvi asosida mddiy ko'rinishga ko'chgan har qanday obyekt mualliflik huquqining obyekti hisoblanadi. **Rangtasvir asarlari**- bu muallif tomonidan tabiiy yoki sun'iy bo'yoq va ranglardan foydalangan holatda ma'lum bir tasvir tushurish imkoniyati mavjud bo'lган obyektlarga chizilgan har qanday tasvir. Misol uchun, natyurmort, peyzaj, yoki ipak mato, sopolga tushrilgan tasvirlarni olishimiz mumkin. **Haykaltaroshlik**- tasviriy sanat turi bo'lib, borliqni hajmli shakllarda, makonda uch o'lchamda tasvirlash tushuniladi. Tasvir obyekti inson, hayvonlar, tabiat (manzara) va narsalar tashkil etadi. Haykaltaroshlikning ikkita asosiy ko'rinishi mavjud bo'lib, bular: aylanib kuzatish imkonini beruvchi dumaloq haykal hamda faqat bir tomonidan ko'rishga mo'ljallangan bo'rtma (qabariq) tasvir relyef turi hisoblanadi. Misol uchun A.Temur xiyobonidagi A.Temur haykali. **Grafika**-alohida yozish va chizish bilan bog'liq bo'lib, o'ziga xoslik jihatidan ajralib turadi. Bunga misol qilib kitobning tuzilishi, yozuvlarning ko'rinishlari, muqovasidagi yoki ichidagi ijodiy chizmalarni misol qilib olish mumkin. **Dizayn asarlari**- narsalar muhitini estetik va funksional sifatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan loyihalash faoliyati turlarini ifodalovchi termin. Dizayn faoliyati tarkibiga keng iste'mol buyumlari, mashina, dastgoh, kiyim, reklama va o'rov materiallari, jamoat va turar joy binolarini jihozlash, mebel va boshqalar kiradi<sup>5</sup>. Bunga misol qilib ma'lum bir xonardonning alohida ko'rinishda jihozlanishi yoki dizayner tomonidan alohida ko'rinishga ega bo'lган ma'lum bir kiyim turining yaratilishi. **Manzarali-amaliy asarlar**- asosan amaliy ishlanmalar asosida manzaralarining tavirlanishi tushuniladi. Bunga misol qilib devorlarda amaliy bezak san'ati namunalardan foydalanim rasmlar chizilib yaxlit bir manzarani hosil qilishi tushuniladi. **Sahna bezagi san'ati asarlari**-ga to'xtaladigan bo'lsak, asosan teatr, amfiteatr va namoyish etiladigan sahnalarining asarning mazmuniga bog'liq bo'lган bezaklar bilan jihozlanishi tushuniladi. Bunda sahna bezatuvchisi o'zining ijodiy yondashuvi asosida namoyish etiladigan audivizual yoki sahna

<sup>4</sup> Audiovizual asarlarni, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlarni takrorlash, sotish, prokatga berish, shuningdek fonogrammalarini tayyorlash bo'yicha faoliyat turlarini litsenziyalash to'g'risida NIZOM 2-bandni

<sup>5</sup> O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. 2000-yil

ko'rinishining mazmuni, uning janri va undagi muhit nuqtayi nazaridan sahnani bezatadi. Misol uchun sahnaning dekoratsiyasi, qahramonlarning liboslari, yorug'lik darajasi va turli illuziyalar yordamida tomoshabinda taassurot uyg'otish kabi harakatlarni olish mumkin. **Arxitektura asarlari**- asosan qurilish sohasida keng qo'llaniladigan mualliflik huquqi obyekti bo'lib, muallif tomonidan bino yoki inshootga nisbatan alohida ijodiy yondashilib, badiiy konsruktorlik asosida yaratilgan asar hisoblanadi. Bunga uyning tom qismi shaklini o'zgartirib undan qo'shimcha funksiya bajarish uchun foydalanish yoki bo'lmasa uyning burchaklarini noodatiy ko'rinishda ko'pburchakli yoxud zinalarning poyalarining shishadan o'xshash bo'limgan ko'rinishda qurish. Mualliflik huquqining navbatdagi obyekti **shaharsozlik** bo'lib, aholi yashaydigan hududlarda turar joylarni ma'lum bir loyiha asosida rejalashtirish hisoblanadi. Bunda shaharsozlik ishlari amalga oshiriladigan hududning me'morlik va qurilish buniyodkorligi, jamiyatning ijtimoiy tizimi va ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyot darajasi, madaniyati, tabiiy iqlim sharoitlari va milliy o'ziga xosligi kabi taraflari inobatga olinib, ijtimoiy-iqtisodiy, sanitariya-gigiyena, qurilish-texnika, badiiy-me'moriy masalalar majmuini o'z ichiga to'liq qamrab oladi. Bunda loyiha muallif sifatida loyihaning qamroviga qarab bir yoki bir necha shaxslar, urbanizatorlar e'tirof etilishi mumkin. Bunga misol qilib kampus shaklida qurilayotgan, bog'cha, maktab, poliklinika va aholi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy obyektlari bo'lgan Xonsaroy turarjoy manzillarini olishimiz mumkin. Keyingi obyektimiz **bog'-park barpo etish san'ati asarlari** bo'lib, ushbu obyekt ijodiy yondashgan holda yerlarda maxsus dizayndagi landshaftlar barpo etish yoki daraxt va butalarga ishlov berib noodatiy ko'rinishga keltirish tushuniladi. Masalan manzarali butani maxsus usullar bilan o'stirib, hayvon yoki ko'za shakliga keltirish holatini olsak bo'ladi. **Fotografiya asarlari** mualliflik obyektida esa suratga olish vositalari (plyonkali, raqamlı, optik va bosh.) yordamida tegishli rakurslarda olingan fotografik suratlar kiradi. Bunda albatta ijodiy yondashuv bo'lishi, ya'ni suratga oluvchi qaysi tarafdan, qanday paytda va qanday holatda suratga tushurish lozimligini oldindan o'yab ijodkorligini ishga solib amalga oshiradi. Hech qanday ijodiy yondashuvlarsiz amalga oshiriligan fotosuratlarga nisbatan mualliflik huquqi vujudga kelmaydi. Bu obyektga misol qilib to'y-marosimlarda, esda qolarli kunlarni muhrlashda fotosessiyani amalga oshiradigan operatorlarni olishimiz mumkin. Eng ko'p ijodiy yondashuv aynan ular tomonidan amalga oshirilgan fotografik asarlarda namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin. Bunda subyekt faqatgina suratga olishni amalga oshirgan shaxs hisoblanadi. Amaliyotda ba'zi holatlar bor bo'lib, misol uchun maymunning suratchining kamerasini olib o'zi bilmagan holda o'zini suratga olganlik holati mavjud. Bunda muallif sifatida fotokameraning egasi e'tirof etilgan. **Jo'g'rofiya va geologiya xaritalariga** keladigan bo'lsak, bular ham mualliflik huquqining muhim obyekti hisoblanadi. Jo'g'rofiya xaritalarida ma'lum bir geografik hududning to'liq xaritasi aks etib, unda qutb tomonlari, tabiiy relief va landshaftlarning joylashuvi, tog'lar, daryolar, sahrolar, meridian chiziqlari, iqlimi haqidagi malumotlar asosida yaratilsa, geologiya xaritalarida kimyoviy elementlardan tashkil topgan madanlarning ma'lum bir geografik hududda joylashuv o'rni, ularning miqdori, yer sathidan qancha masofada joylashganligi, elementlarning maxsus belgilari asosida kodlangan ko'rishlari, madanga boyligini bildirish uchun to'q rang yoki kam ma'danli joylarni och ranglar orqali tasvirlab beriladi.

Nihoyat eng zamonaviy va jadal rivojlanayotgan mualliflik huquqi obyektiga navbat yetib keldi, bu **barcha turdag'i EHM uchun dasturlar**. EHM uchun yaratilgan dastur — obyektiv shaklda ifodalangan hamda muayyan natija olish maqsadida EHM, EHM shaxobchalari va boshqa kompyuter vositalarining ishlashi uchun mo'ljallangan ma'lumotlar va ko'rsatmalar majmui<sup>6</sup> hisoblanadi. Bunda dasturchi yoki dasturchilar guruhi tomonidan maxsus dasturlaash tili yordamida dasturlashni nazarda tutadi. Buning e'tiborli jihatni **har qanday dasturlash tilida va har qanday shaklda** ifoda etilishi bilan farqlanadi. Bunga misol tariqasida bankomatlarda yoki elektron to'lov tizimlarida qo'llanilayotgan dasturlarni olishimiz mumkin. **Boshlang'ich matn** (birorta dasturlash tilida yozilgan, biron-bir kompilyator qayta ishlagagan matn) **hamda obyekt kodida** ( boshlang'ich matnning mashina kodiga aylantirilishi

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining "Ektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida" gi Qonuni, 1-modda. 06.05.1994 yildagi 1060-XII-son

natijasida yuzaga kelgan dastur) *ifodalanishi mumkin bo’lgan amaliy dasturlar va operatsiya tizimlari* ham kompyutar texnologiyalari bilan bog’liq mualliflik obyekti bo’lib, malum bir qurilmalar guruhi yoki ishslash prinsiplariga bog’liq bo’ladi va ushbu operatsion tizim orqali ishlaydi. Bunga misol qilib, Windows, IOS, Android, Doppix, Linux va boshqa operatsion tizimlarni olishimiz mumkin.

EHM uchun dasturlar yoki ma’lumotlar bazalariga nisbatan mualliflik huquqi O’zbekiston Respublikasining “Ektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to’g’risida” gi Qonuni 4-moddasida mustahkamlab qo’ylgan bo’lib: “EHM uchun dasturlar yoki ma’lumotlar bazalariga nisbatan mualliflik huquqi ular yaratilgach yuzaga keladi. EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma’lumotlar bazasiga bo’lgan mualliflik huquqi e’tirof etilishi va ro’yboga chiqarilishi uchun ro’yxatdan o’tkazish yoki o’zga rasmiyatshiliklarga rioya etish talab qilinmasligi” belgilab qo’ylgan. Bundan ko’rinib turibdiki EHM uchun dasturlar yoki ma’lumotlar bazalariga nisbatan muallif deb e’tirof etish uchun ham biron bir rasmiy protsedurani amalga oshirish talab etilmaydi, aksincha EHM uchun dasturlar yoki ma’lumotlar bazalarining yaratilishi u yaratgan shaxsga mualliflikning vujudga kelishini ta’minlab beradi.

Mualliflik huquqi obyekti bo’lmagan materiallardan yoki asarlardan tarkib topgan ma’lumotlar bazasiga nisbatan mualliflik huquqi ma’lumotlar bazasini yaratgan shaxslarga tegishli bo’ladi va ma’lumotlarga nisbatan mualliflik saqlanib qoladi. Bunda boshqa shaxsning mualliflik huquqi obyekti bo’lgan materialarni o’z ichiga olgan ma’lumotlar bazasiga bo’lgan mualliflik huquqi bunday materialarning har biriga nisbatan mualliflik huquqiga rioya qilingan taqdirdagina e’tirof etiladi. Ma’lumotlar bazasiga kiritilgan materialarning har biriga nisbatan mualliflik huquqi saqlanadi. Bu materiallar ma’lumotlar bazasidan qat’i nazar ishlatalishi mumkin.

EHM uchun yaratilgan dasturlar yoki ma’lumotlar bazalariga bo’lgan mualliflik huquqi ularning moddiy ashyosiga nisbatan mulk egaligi huquqi bilan aloqador emas. Moddiy ashyoga nisbatan bo’lgan huquqlarni o’zgalarga har qanday tarzda berish EHM uchun yaratilgan dasturlar yoki ma’lumotlar bazalariga bo’lgan mualliflik huquqlaridan birortasining o’zgalarga o’tib qolishiga sabab bo’lmaydi<sup>7</sup>.

Endi navbatdagi mualliflik huquqi va uning obyektlari tushunchasi haqida xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarda qanday normalar mavjud? degan savolimizga to’xtaladigan bo’lsak, mualliflik huquqi obyektlarini va ularning muhofazasi xalqaro qonunchilikda ham bir necha davlatlar guruhi tomonidan yoki tijoriy maqsadlarda uncha ko’p bo’lmagan davlatlar tomonidan imzolangan shartnomalar yoki xalqaro konvensiyalar mayjud bo’lib, ularni quyidagilar tashkil etadi:

- “Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to’g’risida”gi Bern Konvensiyasi
- TRIPS xalqaro shartnomasi
- Butunjahon intellektual mulk tashkilotining “Mualliflik huquqi tog’risidagi” shartnomasi
- Marokash shartnomasi

Ushbu xalqaro ahamiyatga ega hujjatlar ham mualliflik huquqida muhim o’rin kasb etib, mualliflik huquqi obyektlarining xalqaro miqyosdagi himoyasini ta’minlashda alohida o’ringa ega.<sup>8</sup>

Bern konvensiyasi 1886-yilda qabul qilingan bo’lib, asarlar va ularning mualliflarining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Ushbu konvensiya 1896-yilda Parijda va 1908-yilda Berlinda qayta ko’rib chiqilgan. 1914-yilda Bernda yakunlangan. 1928-yilda-Rimda, 1948-yilda Bryusselda, 1967-yilda Stokholmda va 1971-yilda Parijda qayta ko’rib chiqilgan va 1979-yilda tuzatishlar kiritilgan. O’zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2004-yil

<sup>7</sup> O’zbekiston Respublikasining “Ektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to’g’risida” gi Qonuni, 4-modda. 06.05.1994 yildagi 1060-XII-son

<sup>8</sup> Bahramova, Mohinur Bahramovna. "Nizolarni onlays hal qilish (ODR) va uning xalqaro yurisdiksiyasi." *Информатика* 35-2 (2021): 43-<https://elibrary.ru/item.asp?id=46653440>

27-avgustdaggi 681-II-sonli “Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to’g’risidagi Bern Konvensiyasiga qo’shilish haqida”gi Qaroriga asosan qo’shilgan. Hozirgi kunda ushbu konvensiyani dunyoning 179 mamlakati ratifikatsiya qilgan. “Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to’g’risida”gi Bern Konvensiyasi xalqaro shartnomaga bo’lib, unga a’zo mamlakatlar o’rtasida mualliflik huquqini himoya qilishning asosiy qoidalarini belgilab beradi. Konvensiya doirasida mualliflik huquqi obyektlarining keng doirasini tan oladi va mualliflik huquqining oibyektlari sifatida quyidagilarni e’tirof etadi:

1. Adabiy asarlar: kitoblar, maqlolar va yozma usulda ifodalashning boshqa shakllari kabi yozma asarlarning barcha shakllarini o’z ichiga oladigan asarlar
2. Musiqiy asarlar: musiqa kompozitsiyalarining barcha shakllari, jumladan, qo’shiqlar, cholg’u asboblari yoradamida yaratilgan asarlar va boshqa musiqiy ifodalarni o’z ichiga olgan asarlar
3. Dramatik asarlar: dramatik asarlarning barcha shakllarini, masalan, pyesalar va ssenariylarni o’z ichiga oladigan asarlar
4. Badiiy asarlar: rasmlar, chizmalar, fotosuratlar, haykallar va ijodiy ifodaning boshqa shakllari kabi tasviriy san’atning barcha turlarini o’z ichiga olgan asarlar
5. Kinematografik asarlar: filmlar, teledasturlar va boshqa audiovizual iboralar kabi audiovizual asarlarning barcha shakllarini o’z ichiga olgan asarlar
6. Arxitektura ishlari: me’moriy dizaynlar, rejalar va modellarning barcha shakllarini o’z ichiga oladi
7. Kompyuter dasturlari: Bu dasturiy ta’midotning barcha shakllarini, jumladan, operatsion tizimlar, ilovalar va boshqa kompyuter dasturlarini o’z ichiga oladi.

Bern konvensiyasi, shuningdek, mualliflik huquqi egalarining huquqlarini, jumladan, ularning asarlarini ko’paytirish, tarqatish, ijro etish va namoyish qilish huquqini, shuningdek, ushbu huquqlarni litsenziyalash va amalga oshirish huquqini tan oladi.

TRIPS kelishuvi 1994-yil 15-aprelda Marokashda imzolangan Jahon savdo tashkilotini ta’sis etish to’g’risidagi Marrakesh bitimining 1C-ilovasi hisoblanadi. Hozirgi kunda ushbu hujjatni dunyoning 164 mamlakati ratifikatsiya qilgan. TRIPS kelishuvi (Intellektual mulk huquqlarining savdo-sotiq bilan bog’liq jihatlari to’g’risidagi bitim) intellektual mulk huquqlarini, shu jumladan mualliflik huquqini himoya qilish va qo’llash bo’yicha minimal standartlarni belgilaydigan xalqaro shartnomadir. Shartnomada mualliflik huquqini himoya qilish obyektlari sifatida quyidagilar tan olingan:

1. Adabiy asarlar
2. Musiqiy asarlar
3. Dramatik asarlar
4. Badiiy asarlar
5. Kinematografik asarlar
6. Ovozli yozuvlar
7. Kompyuter dasturlari

TRIPS kelishuvidagi mualliflik huquqi obyektining faqrli turi bu 6-banddagi ovozli yozuvlar obyektidir. Ushbu kelishuvga binoan ovozli yozuvga: musiqa yozuvlari, og’zaki so’z yozuvlari va yozilgan ovozning boshqa shakllarini o’z ichiga olgan barcha yozilgan ovoz shakllarini o’z ichiga olishi belgilab qo’yilgan. Bu bevosita shaxsning ovozlari ham uning maxsus texnika-texnologiyalar orqali yozilgan ovozlari ham mualliflik huquqini vujudga kelishini anglatadi va kelishuv doirasida muhofaza qilinadi.

Marokash shartnomasi, shuningdek, Marrakesh VIP shartnomasi sifatida ham tanilgan, nogironligi bo'lgan odamlar uchun nashr etilgan bosma asarlarga kirishni osonlashtirishga qaratilgan xalqaro shartnomadir. U 2013-yil 27-iyun kuni Marokashning Marokash shahrida Butunjahon intellektual mulk tashkilotiga (BIMT) a'zo davlatlar tomonidan qabul qilingan. Shartnoma imzolagan shaxslardan mualliflik huquqi egalarining ruxsatisiz brayl, katta bosma va audiokitoblar kabi mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlarning ochiq formatlarini yaratish va tarqatishga ruxsat berish uchun o'zlarining milliy mualliflik huquqi qonunlarida istisnolar ko'rsatishni talab qiladi. Shartnoma, shuningdek, bunday foydalanish mumkin bo'lgan formatlarni transchegaraviy almashish imkonini beradi, bu esa ushbu formatlarni o'zlar ishlab chiqarish uchun resurslarga ega bo'lмаган mamlakatlar uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. 2023-yil aprel holatiga ko'ra, shartnomani 92 davlat ratifikatsiya qilgan.

Bundan tashqari xalqaro qonunchilikda mualliflik huquqini himoya qilinishi Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan amalga oshirilib, mualliflik huquqi bilan bog'liq bir qancha xalqaro shartnomalarni boshqaradi va nazorat qilib boradi.<sup>9</sup> Ushbu shartnomalarning barchasi mualliflik huquqini himoya qilish obyektlarining keng doirasini, jumladan adabiy, musiqa va san'at asarlarni, shuningdek, kompyuter dasturlari, ovoz yozuvlari va audiovizual asarlarni tan oladi. Shartnomalar, shuningdek, mualliflik huquqi egalarining huquqlarini tan oladi va ushbu huquqlarning buzilishi uchun tegishli va samarali huquqiy himoya vositalarini nazarda tutadi. Bularغا quyidagilar kiradi:

- Yuqorida sanab o'tilgan "Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risida"gi Bern Konvensiyasi
- Butunjahon intellektual mulk tashkilotining (WIPO) "Mualliflik huquqi tog'risidagi" shartnomasi (WCT). Ushbu shartnoma orqali raqamli muhitda ya'ni kompyuter texnologiyalari va tizimlarida mualliflik huquqini himoya qilish, jumladan, kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazalariga nisbatan mualliflikning vujudga kelishi va himoya qilish bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi.
- BIMTning Ijrolar va fonogrammalar to'g'risidagi shartnomasi (WPPT): Ushbu shartnoma ijrochilar va fonogrammalarni (ovozi yozuvlari) ishlab chiqaruvchilarning raqamli muhitda huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq bo'lib, mualliflik obyektlari jihatidan ijro va fonogrammalar e'tirof etilgan.
- Audiovizual ijrolar bo'yicha Pekin shartnomasi: Ushbu shartnoma mualliflik huquqi obyekti hisoblangan audiovizual asarlar, jumladan, kino va teledasturlar ijrochilarining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

Mualliflik huquqi obyektlari doirasida muallifning obyektga nisbatan shaxsiy-nomulkiy va mulkiy huquqlari yuzaga keladi. Mualliflik obyektiga nisbatan shaxsiy-nomulkiy huquqlar O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi" qonuni 18-moddasida belgilab qo'yilgan. Bunga ko'ra asar muallifi deb e'tirof etilish huquqi (mualliflik huquqi)ga, asardan muallifning haqiqiy ismi-sharifi, taxallusini ko'rsatgan holda yoxud ismi-sharifini ko'rsatmasdan, ya'ni imzosiz foydalanish yoki foydalanishga ruxsat berish huquqiga, asarni o'zi xohlagan usulda yoki shaklda oshkor etishi yoki oshkor etishga ruxsat berishga, asardan muallifning qadr qimmatiga zarar yetkazmasdan va asarga bo'ladigan boshqa tajovuzlardan himoyalanishga, buzilgan huquqlari natijasida asarni chaqirib olish kabi huquqlarga ega. Shaxsiy-nomulkiy huquqlarning eng ahamiyatlari jihatni bu "muallifning o'z shaxsiy nomulkiy huquqlarini amalga oshirishdan voz kechish to'g'risida biron-bir shaxs bilan kelishuvi va bu haqdagi arizasi o'z-o'zidan haqiqiy emas"ligi holatidir. Bu shaxsning o'z xohishiga ko'ra o'tkazilgan shaxsiy-nomulkiy huquqlari bevosita tan olinmasligini ya'ni ushbu huquqlar faqat mualliflik huquqi obyekti muallifiga tegishli ekanligini anglatadi.

Mualliflik obyektiga nisbatan mulkiy huquqlar O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh

<sup>9</sup> Ruzinazarov, Shukhrat Nuralievich, and Mokhinur Bakhranova Bakhramovna. "ODR as a new way of resolving online disputes in E-commerce." *Eurasian Scientific Herald* 7 (2022): 323-327.

<https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/1303/1154>

huquqlar to'g'risidagi" qonuni 19-moddasida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, mulkiy huquqlar bevosita tijoratlashtirish, mualliflik huquqi obyektidan mutlaq yoki qisman foydalanish, undan keladigan daromadni tasarruf etish kabi quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi. Bunda mualliflik huquqi obyektining muallifi asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanishda mutlaq huquqlarga ega bo'lib, shartnomaga asosida jismoniy yoki yuridik shaxslarga obyektdan foydalanish huquqini berishi, asardan uning nusxasini ko'paytirib sotishi, asarning asl nusxasini yoki nusxalarini sotish yoki mulk huquqini o'zgacha tarzda boshqa shaxsga o'tkazish yo'li bilan tarqatishi, asarni barchaning e'tiboriga yetkazishi, asarni ma'lum muddatga foydalanish uchun prokatga berishi, asarni maxsus texnik vositalar yordamida barchaning e'tibori uchun yuborishi, asarga tuzatishlar kiritish, uni aranjirovka qilish yoki boshqacha tarzda qayta ishlashi, mualliflik huquqi obyektini omma oldida ijro etishi yoki e'lon qilishi, asarni efirga uzatishi yoki tarjima qilishi, shungdek, asardan foydalanilgani uchun haq olishi kabi mulkiy huquqlari mavjud.

Mualliflik huquqi obyektlarini muhofaza qilish va ahamiyatli jihatlari nimalardan iboratlik masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, bugungi kunda jadallik bilan rivojlanib borayotgan iqtisodiyot sohalari intellektual mulk sohasiga ham o'z hukmini o'tkazmoqda. Bu esa ushbu sohani yanada rivojlantirish zarurligini taqozo etadi. So'nggi yillarda mamlakatimizning xalqaro maydonda tutgan imiji va "reyting"ini yuksaltirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu yo'nalishdagi eng samarali usullardan biri jahondagi muhim xalqaro reyting va indekslardan o'rın olish hamda ularda yuqori o'rinnarni egallash bilan xarakterlanadi. Xalqaro reyting va indekslarda tutgan o'rın O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy islohotlarni mustahkamlash hamda investision jozibadorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Intellektual mulkni samarali tijoratlashtirish bilan birga, uning huquqiy himoyasini mustahkamlash zarur. Intellektual mulkning himoyalanganlik darajasi qonun ustuvorligi va iqtisodiyot nuqtai nazaridan muhim sanaladi. Mualliflik huquqi obyektlaridan foydalanish bugunga kelib chegarasiz darajaga yetgan. Bu, ayniqsa, telekommunikasiya tarmoqlari rivojlangan hozirgi davrda o'zining ahamiyatini yanada oshirgan. "Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risida"gi Bern Konvensiyasiga muvofiq tuzilgan Bern ittifoqiga a'zo davlat hududida yaratilgan asar boshqa bir davlat hududida foydalanilganda, asarning daxlsizligi, muallifning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari to'laqonli saqlanadi hamda himoya qilinadi. Jumladan, ushbu qoida mamlakatimiz ijodkorlari asarlaridan Ittifoqqa a'zo boshqa mamlakatlarda foydalanilganda ham birdekk ahamiyatga ega. Mualliflik huquqiga doir masalalar milliy qonunchiligmizda ham mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanishi", fuqarolik kodeksi 60-bobida va bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi" qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinib, muhofaza etiladi. Shuningdek, tegishli tartibda qabul qilinib, 30-aprelda umumxalq referendumiga qo'yilgan yangi tahrirdagi konstitutsiya loyihasida ham intellektual mulk sohasida kengroq to'xtalib bosh qomus doirasida mustahkamlab qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin. Yangi tahrirdagi konstitutsiya loyihasining 53-moddasida quyidagicha: "Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi" deya mustahkamlab qo'yilgan. Bu bevosita kundan kunga inteklktual mulk sohasidagi nizolarning ko'payib borayotgan bir davrda uning asosiy qonunimizda norma sifatida kiritilib mualliflarni va boshqa intellektual mulk ishtirokchilariga davlat tomonidan kafolat berilayotganligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi" qonuni 11-moddasiga ko'ra mualliflik huquqining muhofaza belgilarini quyidagilar tashkil etadi:

aylana ichidagi lotincha "C" harfi;

mutlaq mualliflik huquqlari egasining ismi-sharifi (nomi);

asar birinchi marta chop etilgan yil.

Shaxs ushbu uch belgilardan iborat bo'lgan mualliflik obyektiga nisbatan muallif deb e'rof etishiga qonuniy asos bo'ladi. Bunda shaxs mualliflik huquqlari egasi ekanligini o'z huquqlaridan xabardor qilish uchun mualliflik huquqining muhofaza belgisidan foydalanishi mumkin bo'lib, bu belgilar asarning chop etiladigan har bir nusxasida aks ettirilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasining 06.05.1994-yildagi 1060-XII-son "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasida binoan EHM ning muhofaza belgilarini quyidagilar tashkil etadi:

- doira yoki kichik qavs ichiga olingan "C" harfi;
- huquq egasining nomi (ismi);
- EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasi birinchi bor bosib chiqarilgan yil ko'rsatilgan yozuvdan tarkib topgan himoya belgisini qo'llashi. Bunga misol qilib, Apple 13 pro max smartfonning mualliflik muhofazasining quyidagi belgisini olishimiz mumkin: © 2021 Apple nc. (shaxsan smartfonning qo'llab-quvvatlash bo'limiga kirib, ko'rib tekshirib olingan ma'lumot).

Bundan tashqari intellektual mulk sohasida mualliflik huquqi obyektining muhofaza muddati milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi" qonuni 35-moddasiga ko'ra: "*Mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida hamda hammualliflikda yaratilgan asarga bo'lgan mualliflik huquqi hammualliflarning butun hayoti davomida va hammualliflar orasida eng uzoq umr ko'rigan oxirgi shaxs vafot etganidan keyin yetmish yil davomida amal qiladi*". Muddat bilan bog'liq yana bir farqli jihat taxallus ostida yoki imzosiz qonuniy oshkor qilingan asarga bo'lgan mualliflik huquqi asar oshkor qilinganidan keyin ellik yil davomida amal qilinish holatidir.

"Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risida"gi Bern Konvensiyasiga asosan esa ushbu muddat biroz farq qiladi. Bu konvensiyaning 7-moddasiga binoan, mazkur Konvensiya tomonidan taqdim etiladigan muhofaza muddati muallifning butun hayotini va uning vafotidan keyin **ellik yilni** tashkil qiladi. Biroq bunda istisno holati mavjud bo'lib, kinemotografik asarlar uchun konvensiyani ratifikatsiya qilgan mamlakatlar muallif roziligi bilan asar barchaning e'tiboriga yetkazilganidan keyin ellik yil o'tib muhofaza muddati tugashini, yoki, agar bunday asarning yaratilgan vaqtidan e'tiboran ellik yil mobaynida bu voqeа sodir bo'lmasa, asar yaratilganidan keyin ellik yil o'tib muhofaza muddati tugashini nazarda tutishga haqlilik jihatidir. Buning sababi muallif yoki hammualliflar kinemotografik asarlarni yaratib tayyor qilishlari va uni ma'lum muddatga yoki o'zları xohlagan paytda ommanning e'tiboriga havola qilishlari holatidir. Bu konvensiyada mualliflik huquqi obyektiga mualliflik muhofaza muddati bilan bog'liq yana bir ahamiyatli jihat shundaki konvensiyani ratifikatsiya qilgan mamlakatlar qonunchiligidagi badiiy asarlar sifatida muhofaza qilinadigan fotografik asarlar va amaliy san'at asarlarining muhofaza muddati belgilanishi mumkinligidir. Biroq bu muddat bunday asar yaratilgan vaqtidan e'tiboran yigirma besh yildan qisqaroq bo'lishi mumkin emasligi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Xorijiy davlatlarda mualliflik huquqi va obyektlari qay darajada tartibga solinganlik masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, Germaniyada mualliflik huquqi intellektual mulk huquqining asosiy institutlaridan biridir. Germaniyada mualliflik huquqi obyektlari kontinental Yevropaning ko'plab mamlakatlari kabi ingliz-amerika huquqiy tizimidan foydalaniladi. Germaniya mualliflik huquqi asosan tijorat yo'nalishiga va iqtisodiy investitsiyalarni himoya qilishga qartilgan bo'lib, muallifi bo'lgan ilmiy, adabiy yoki san'at asarlari natijasi bo'lgan uning ma'naviy va moddiy manfaatlarini himoya qilish huquqi muhim ahamiyat kasb etadi. Germaniyada intellektual mulk predmeti adabiyot, fan va san'at asarlaridan tashqari og'zaki va og'zaki tarzda yaratilgan asarlar ham mualliflik huquqi obyektlari sirasiga kiradi. Shuningdek, yozuv, kompyuter dasturlari, musiqiy asarlar, pantomima, xoreografiya, san'at asarları, shu jumladan arxitektura va amaliy san'at, audiovizual va kinematografik asarlar, shu jumladan kinematografiyaga o'xshash tarzda yaratilgan asarlar, chizmalar, rejalar, xaritalar, jumladan, geografik tavsiflar, eskitilar, chizmalar, jadvallar kabi ilmiy-texnik xarakterdagи ishlар kirishi

belgilangan. Nemis huquqida ham asarni mualliflik huquqi bilan himoya qilishning asosiy sharti shaxsnинг intellektual ijodiy faoliyat natijasida obyektning natijasi ekanligi bilan baholanadi. Rossiya Federatsiyasida mualliflik huquqi bilan bog'liq qonunchilik tizimi o'zgacha ko'rinishga ega ekan. Federal qonunlarga ko'ra intellektual mulk bilan bog'liq biron ta ham normativ-huquqiy hujjatda mualliflik huquqi obyektlarining to'liq ro'yxati haqida ma'lumot berilmagan, rus qonunchilik nazariyasiga ko'ra vaqt o'tishi bilan ijodning yangi shakllari ixtiro qilinishi mumkin deb qaralar ekan. Ijodiy faoliyat natijasi bo'lgan va har qanday obyektiv shaklda ifodalangan fan, adabiyot va san'at asarlari mualliflik huquqi obyektlari hisoblanar ekan. Ular, xususan: Rossiya Federatsiyasida eng keng tarqalgan mualliflik huquqi obyektlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

adabiy asarlar

kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazalari

manzarali san'at asarları

xoreografik asarlar va pantomimalar

matnli va matnsiz musiqiy asarlar

filmlar va boshqa audiovizual asarlar

rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, dizayn, grafik hikoyalar, komikslar va boshqa tasviriyl san'at asarları

san'at va hunarmandchilik va stenografik san'at asarları

me'morchilik, shaharsozlik va bog'dorchilik san'ati asarları

fotografik asarlar va fotografiyaga o'xshash vositalar bilan olingan asarlar

geografik, geologik va boshqa xaritalar, rejalar, eskizlar va plastmassa ishlari va boshqa ishlar.

Yana bir bor ta'kidlash kerakki ushbu ro'yxat ochiq bo'lib, shaxs yoki shaxslar tomonidan ijodiy yondashuv asosida yaratilgan obyektlar intellektual mulkka tegishli xususiyatlarni o'zida aks ettirsa, mualliflik huquqining obyekti sifati tan olinishi mumkin.

Rus qonunchiligidagi muhim xususiyat shundaki, mualliflik huquqi asarning mazmunini emas, balki shaklini (fikrlarni ifodalash shakli: til, tasvir, tuzilish) himoya qiladi. Bunga yaqqol misol sifatida Rossiya Federatsiyasi Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunning 6-moddasidagi quyidagi normani ko'rishimiz mumkin: "Mualliflik huquqi asarning maqsadi va qadr-qimmatidan, shuningdek, qanday ifodalanganidan qat'i nazar, ijodiy faoliyat natijasi bo'lgan fan, adabiyot va san'at asarlariga ham tatbiq etiladi".<sup>10</sup>

Qozog'iston Respublikasi intellektual mulk qonunchiligini tahlil qilib quyidagicha xulosaga keldik, mualliflik huquqi obyekti bo'lgan asarlarning turlari. Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 972-moddasida va Mualliflik to'g'risidagi qonuniga ko'ra mualliflik huquqi obyektlari quyidagilar:

1. adabiy asarlar;
2. dramatik va musiqali-dramatik asarlar
3. ssenariylar
4. xoreografiya va pantomima asarları
5. matnli yoki matnsiz musiqiy asarlar

<sup>10</sup> Bakhranova, Mokhinur. "The role and importance of online arbitration and electronic dispute resolution in private international law." *Теоретические аспекты юриспруденции и вопросы правоприменения*. 2021. <https://elibrary.ru/item.asp?id=46968096>

6. audiovizual asarlar;
7. haykaltaroshlik, rangtasvir, grafika va boshqa tasviriy san'at asarlar
8. amaliy san'at asarlari;
9. me'morchilik, shaharsozlik va bog'dorchilik san'ati asarlar;
10. fotografik asarlar va shunga o'xshash usullar bilan olingan asarlar
11. fotosuratlar;
12. geografiyaga oid xaritalar, rejalar, eskizlar, illyustratsiyalar va uch o'lchamli ishlar;
13. topografiya va boshqa xaritalar
14. kompyuter dasturlari:
15. boshqa ishlar

Bundan tashqari, Qozog'iston Respublikasida mualliflik huquqi obyektlariga quydagilar kiradi:

- hosaliviy asarlar (tarjimalar, moslashtirishlar, izohlar, tezislar, xulosalar, sharhlar, fan, adabiyot asarlarini dramatizatsiya qilish, musiqiy aranjirovkalar va boshqa moslashtirishlar)
- to'plamlar (entsiklopediyalar, antologiyalar, ma'lumotlar bazalari) va boshqa kompozitsion asarlar
- ijodiy ish multfilm.

Mualliflik huquqi obyektlarini turli olimlar o'zlarining nazariy qarashlari orqali ta'riflashadi. G.F. Shershenevich mualliflik huquqi obyektlarini "yozma yoki og'zaki shaklga ega bo'lgan ruhiy ijod mahsuli va jamiyatda foydalanish uchun mo'ljallangan obyektlar" deb ta'riflaydi. O'z navbatida, Ya.A. Kantorovich

asarni "tashqi shaklga ega bo'lgan muallif ijodiy fikrining ma'lum darajada ifodasi" deb hisoblasa, V.I. Serebrovskiy esa "muallif faoliyati davomida ijodkorlik natijasida olingan g'oyalar, fikrlar, tasvirlar to'plami inson o'qishi mumkin bo'lgan holda ifodalananadigan, ko'payish imkoniyatini beruvchi aniq shakldagi his-tuyg'ular" deb ta'riflaydi. Shununingdek, E.A. Fleischchitz, "Adabiyot, fan, san'at asarlari nomoddiy mahsulotdir, mahsulot sifatida paydo bo'ladigan narsalardan farqli ravishda inson jismoniy mehnati asosida yaratilgan obyektlar moddiy ishlab chiqarish" deb nazariy jihatdan ilgari suradi. Ko'rib chiqilayotgan obyektlarning mohiyati va ma'nosini tahlil qilishga R.I. Sidtiqova katta e'tibor berib, quydagicha to'g'ri ta'kidlagan: "Mualliflik huquqi obyektlari intellektual faoliyatning boshqa natijalari kabi jamiyatning madaniy va iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Jamiyatlar ilmiy va boshqa ijodiy faoliyat natijalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, tegishli sohada ijodiy faoliyat va yangi natijalarni yaratish insoniyat tomonidan to'plangan oldingi tajribadan foydalanishni nazarda tutadi" deya kengroq tushuncha bergen.<sup>11</sup>

Milliy olimlarimizning ham mualliflik huquqi obyektlari haqida o'z qarashlari, nazariy jihatdan ilgari surgan bilimlari mavjud. A.Yo'ldoshev mualliflik huquqi obyekti haqida: "Mualliflik huquqlari dan foydalanish bugungi kelib chegarasiz darajaga yetgan bu ayniqla telekommunikatsiya tarmoqlari rivojlangan hozirgi davrda o'zining ahamiyatini yanada oshirgan" <sup>12</sup>deya ta'rif berib, mualliflik huquqi obyektlarining turlari ko'payib yangi obyektlar yaratilishiga asos bo'lishini ta'kidlab o'tganlar. Yoki bo'lmasa I.Yakubovaning "Asarni mualliflik huquqi obyekti sifatida e'tirof etish sharti sifatida muallif tomonidan yaratilgan asar qog'ozga yozilganga qadar hech kimga o'qimay va bosma nashrda

<sup>11</sup> Bakramova, Mokhinur. "The Origins of the ODR System and Its Advantages over other ADR Methods." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMUY JURNALI 2.1 (2022): 527-530. <http://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/1045/972>

<sup>12</sup> Юлдашов Абдумумин Важные аспекты международной охраны авторского права и развитие договорно-правовой базы // Review of law sciences. 2020. №Спецвыпуск. URL: <https://cyberleninka.ru>

*chop etilmaguncha faqat muallifga ma'lum bo'lishi bilan izohlanadi. Agar tashqarida muallif tomonidan ifoda etilgandan keyingina muallifdan biron bir tarzda ajralib chiqqandan so'ng shakl ko'rinishidagi ifodaga ega bo'ladi”<sup>13</sup> degan ta'riflarini olishimiz mumkin.*

Xulosa qilib aytganda, mualliflik huquqi obyektlarini himoya qilish ijodkorlar huquqlarini himoya qilish va jamiyatda innovatsiyalarni rag'batlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunlar ijodkorlarga o'z asarlariga nisbatan huquqiy asos va mutlaq huquqlar beradi va shu bilan yangi hamda ijodiy g'oyalar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Biroq, raqamli texnologiyalar, ommaviy axborot vositalari va internetning paydo bo'lishi mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlarni, jumladan, ko'chirish, muallifning ruxsatisiz tijoriy maqsadlarda foydalanish kabi huququzarliklar mualliflik huquqi obyektlarini himoya qilishda jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Bundan tashqari, hozirgi raqamli muhit mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunlarni ularning dolzarbli va samaradorligini ta'minlash uchun qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Bu adolatdan foydalanish, egasiz asarlarni va yangi texnologiyalarning mualliflik huquqini himoya qilishga ta'siri kabi muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, raqamli asrda adolatli foydalanish masalasi tobora murakkablashib bormoqda. Raqamli kontendtan nusxa ko'chirish va almashishning qulayligi adolatli foydalanishning kengroq talqin qilinishiga olib keldi, bu esa uni qo'llash darajasi bo'yicha muhim huquqiy nizolarga olib keldi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mualliflik huquqi obyektlarini himoya qilish ijodkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, madaniy va badiiy ifodalarni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Bu turli manfaatdor tomonlarning, jumladan, ijodkorlar, foydalanuvchilar, siyosatchilar va texnologiya provayderlarining birqalikdagi sa'y-harakatlarini, ijodkorlarning huquqlarini himoya qiluvchi muvozanatli va samarali tizimni yaratish hamda ijodiy ishlardan foydalanish hamda ulardan foydalanishni rag'batlantirishni talab qiladi. Bunga erishish uchun mualliflik huquqi qonunlari raqamli davrda dolzarb va samarali bo'lib qolishi uchun manfaatdor tomonlar o'rtasida doimiy muloqot va hamkorlikka ehtiyoj bor.

### Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati:

1. И.Б.Якубова. Муаллифлик хукуки. Ўқув кўлланма. – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2020. – 120 б.
2. Юлдашов Абдумумин Важные аспекты международной охраны авторского права и развитие договорно-правовой базы // Review of law sciences. 2020. №Спецвыпуск.
3. Bakhramova Mokhinur A THOROUGH REVIEW OF THE COMMON LAW CONCEPT OF "ARBITRARY TERMINATION" AND "UNFAIR DISMISSAL" (including DIFC&ADGM // Review of law sciences. 2020. № November Exclusive issue. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/a-thorough-review-of-the-common-law-concept-of-arbitrary-termination-and-unfair-dismissal-including-difc-adgm>
4. Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 21.08.2021 й., 03/21/709/0808-сон
5. БЕРНСКАЯ КОНВЕНЦИЯ ОБ ОХРАНЕ ЛИТЕРАТУРНЫХ И ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ. Парижский акт от 24 июля 1971 года, измененный 28 сентября 1979 года
6. Bakhramova, Mokhinur. "Perspectives Of Development Of Arbitration Legislation And Law Enforcement Practice In Uzbekistan." *European Journal of Molecular & Clinical Medicine* 7.1 (2020): 3586-3593. [https://ejmcm.com/article\\_4172\\_46bc5c3ed433bbd8f238921032e63b47.pdf](https://ejmcm.com/article_4172_46bc5c3ed433bbd8f238921032e63b47.pdf)
7. WIPO COPYRIGHT TREATY (WCT). December 20.1996. Geneva
8. Bahramova, Mohinur Bahramovna. "Nizolarni onlayn hal qilish (ODR) va uning xalqaro yurisdiksiyasi." *Интернаука* 35-2 (2021): 43-<https://elibrary.ru/item.asp?id=46653440>

<sup>13</sup> И.Б.Якубова. Муаллифлик хукуки. Ўқув кўлланма. – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2020. – 120 б.

9. Шахназаров Б. А. Особенности выявления и определения объектов авторских прав в Российской Федерации // Актуальные проблемы российского права. — 2023. — Т. 18. — № 3. — С. 92–100.
10. Objects of Copyright. M.Ya.Kirillova. 2010.
11. Полную статью Закона РФ от 9 июля 1993г. №5351-И "Об авторском праве и смежных правах" (с изменениями от 19 июля 1995г.)
12. Ruzinazarov, Shukhrat Nuralievich, and Mokhinur Bakramova Bakramovna. "ODR as a new way of resolving online disputes in E-commerce." *Eurasian Scientific Herald* 7 (2022): 323-327. <https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/1303/1154>
13. Bakramova, Mokhinur. "The role and importance of online arbitration and electronic dispute resolution in private international law." *Теоретические аспекты юриспруденции и вопросы правоприменения*. 2021. <https://elibrary.ru/item.asp?id=46968096>
14. Р.Ш. Рахматулина. Объекты авторского права России и Франции
15. Bakramova, Mokhinur. "The Origins of the ODR System and Its Advantages over other ADR Methods." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 527-530. <http://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/1045/972>
16. <https://lex.uz>
17. <https://wipo.int>
18. <https://myima.uz>
19. <https://sumip.ru>
20. <https://cyberleninka.ru>